ISSN 2181-3187

# SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF ISLOM DINIGA QO'SHGAN HISSASI

ВКЛАД ШЕЙХА МУХАММАДА САДИКА МУХАММАДА ЮСУФА В ИСЛАМ

CONTRIBUTION OF SHEIKH MUHAMMAD SADIQ MUHAMMAD YUSUF TO ISLAM

*Ilmiy raxbar:* ***Samatov Xurshid O'lmasjonovich***
***Yalgashov Sanjar Bahtiyorovich***
*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Samarqand filiali "TTKT" fakulteti 23-06-guruh talabasi*
*Elektron manzil: sanjaryalgashov56@gmail.com*

**Annotatsiya:** Bu maqola SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hayotini urganilib chiqishga qaratilgan.SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf olib borilgan islohotlar,hayotiy faoliyati va nashrga chop etilgan kitobi tug'risida yozildi.

**Kalit so'zlar:** Islom, Iymon, qadriyat, Qur'on, SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, fiqh

Islom dini butun dunyoda keng tarqalgan dindir. Shu jumladan, dinda katta bilim va malakaga erishgan olim va allomalar ham bordir. Bugungi kunda mamlakatimizda dinga katta va alohida e'tibor berilmoqda. Imomlarimiz va din ulamolarimizga keng imkoniyatlar berilmoqda. Islom dini olamida mashhur va kop samarali ishlarni amalga oshirgan ozbekistonlik yetuk alloma Shayx hazratlarini xotirlab otishim joiz bolur.Bu inson Prezidentimiz taqdirlab shunday degan edilar: "Ozining serqirra faoliyati hamda beqiyos ilmiy-ma'rifiy merosi bilan islomiy tafakkur va madaniyatni ravnaq toptirish, muqaddas dinimizning ulug insoniy goyalarini xalqimizga yetkazish, mashhur ulamolarimizning bebaho asarlarini chuqur tadqiq etish, turli mamlakat va olkalarda keng targib qilish borasidagi kop yillik samarali mehnati, xalqaro miqyosda dinlararo muloqotni yolga qoyish, millat va elatlar ortasidagi hamjihatlik va ahillikni mustahkamlash, jamiyat hayotida ijtimoiyma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qoshgan ulkan hissasi, diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallagan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yolidagi alohida xizmatlari uchun Orta Osiyo va Qozogiston musulmonlari diniy boshqarmasining sobiq raisi, muftiy, marhum shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, "Oliy darajadagi Imom Buxoriy" ordeni bilan mukofotlansin" deya ta'kidlagan edi. Yetuk alloma, mujaddid, mufassir, muhaddis, faqih, mutaffakir, murshid, zohid, Shayx Muhammad Yusuf 1952-

ISSN
2181-3187

yil Andijon shahrida tavallud topgan.Oz zamonasida islom olamining buyuk va yetuk allomasi sanalgan.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazkur faoliyatlari bilan Markaziy Osiyoda ilmiy uygonish yasadi.Uning asarlari, suhbatlari koplab ilm ahliga ilhom baxsh etdi. U o'z Islomni organish va organish yolida yangi bir maktabga asos soldi. Yuzlab shogirdlarni tarbiyaladi.Unga goyibona shogird bolganlar.

*Asosiy maqola: Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf kitoblari ro'yxati*

1994-yildan 2000-yilgacha Muhammad Sodiq o'ttizga yaqin mashhur maqola va yigirma beshta kitob va risolalarni nashr etdi. Ko'pchilik o'zbek tilida yozilgan, ba'zilari esa rus tiliga ham tarjima qilingan. Asosiy nashriyot O'shdagi Islom madaniyat markazi matbuotining Qorasuv bo'limi edi.

Muhammad Sodiq kitoblari orasida: *Tafsiri hilol* (Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri, 6 jildda), *Hadis va hayot* (Hadis va hayoti, islom tarixi va barcha tafsilotlari haqida tizimli ravishda batafsil so'z yurituvchi kitoblar turkumi, barcha payg'ambarlar tarixi.., 40 jild atrofida), *Ruhiy tarbiya* (Ma'naviyat tarbiyasi, 3 jild), *Kifoya* (*fiqh* (Islom huquqi) 3 jildli kitoblar) va boshqa ko'plab islomga oid kitoblar, bukletlar, audio va video materiallar hamda Imom al-Buxoriyning mashhur kitoblarining o'zbek tiliga tarjimalari bor.

Muhammad Sodiq 2002-yildan beri o'z kitoblarida e'tiqod ichidagi bo'linishlarni engib o'tishga intilayotgan islom harakati uslubida quyidagi aqidani yozib kelgan:

> Bizning shiorimiz: Haqiqiy iymonga, sof Islomga intilamiz, Qur'on va Sunnatni ularga amal qilish uchun o'rganishni istaymiz va Islom ilmini yoyishni istaymiz. Biz haqiqiy *mujtahidlar* - muborak ajdodlarga (as-Salaf as-Solihun) ergashishni xohlaymiz; toqat va birodarlikni (musulmonlar) yoyishni istaymiz. Shuningdek, biz diniy savodsizlikni yo'q qilishni, qarama-qarshilik va bo'linishlarimizga chek qo'yishni, aqidaparastlik va gunohkor ishlarimizni tozalashni xohlaymiz.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf mazkur faoliyatlari bilan Markaziy Osiyoda ilmiy uyg'onish yasadi. Uning asarlari, suhbatlari ko'plab ilm ahliga ilhom baxsh etdi. U o'z asarlarining boshida beradigan yuqorida ko'rsatilgan shioriga har doim amal qildi. U sof Islomni o'rganish va o'rgatish yo'lida yangi bir maktabga asos soldi. Yuzlab shogirdlarni tarbiyaladi. Unga g'oyibona shogird bo'lganlarning esa sonsanog'i yo'q. Bir qancha asarlari rus tiliga tarjima qilindi. Uning tashabbusi bilan rusiyzabon xalqlarga ham ulkan islomiy ilmlar yetib bormoqda. Shuningdek, uning asarlari uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq kabi bir muncha qardosh tillarga ham

ISSN 2181-3187

tarjima qilingan va qilinmoqda. Markaziy Osiyoda bunchalik sermahsul, unumli va ta'sirli ijod qilgan olimni o'tgan ikki-uch asr ichida uchratish mushkul. [1]

Hazratning shunday ma'noli shiori bolgan: “Ahli sunna va jamoa mazhabi asosida pok aqida va musaffo Islomga intilish, Qur'on va Sunnatni o'rganib amal qilish, islomiy ma'rifat taratish, salafi solih – ulug' mujtahidlarga ergashish, kengbag'irlik va birodarlik ruhini taratish. Diniy savodsizlikni tugatish, ixtilof va firqachilikka barham berish, mutaassiblik va bid'at xurofotlarni yo'qotish”. Bulardan tashqari, Shayx Muhammad Sodiq Muammad Yusuf el-yurt bo'ylab ko'plab yig'inlar, turli tadbirlarda ishtirok etardi. Ularda ham ilmiy-ma'rifiy suhbatlar, islomiy da'vatlar olib borgan. Bunday ishtiroklarining son-sanog'i yo'q. Masjidlarda Ramazon oyida maxsus suhbatlar uyushtirib, ularda alohida asosiy ilmiy mavzular qilgan.

Asarlaridan kopgina ma'lumotlar ham bor.Bularga misol qilib aytsak, Odoblar xazinasi kitobi katta ma'naviy sozlarga boy.”Ushbu kitob Imom Buxoriyning ikkinchi bosh asarlari bo`lib, (Al-adab Al-mufrad) kitoblariga Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari sharh qilib yozganlar.

Kifoya asari 3 jildlik mujalladning toliq nomi “ Kifoya sharhi Muxtasari Viqoya”dir, ya'ni u Orta Osiyoda mashhur bolgan “ Muxtasari Viqoya”ning tarjima va sharhidir. Birinchi juzda “ Poklik” va “ Namoz” kitoblaridan iborat.Oltin silsilasi kitobida Sahihi Buhoriyning tarjimasi bolib, unda asosan hadislardan misollar keltirilgan.Hadisning ma'no mazmuni tushuntirilib berilgan.Ruhiy tarbiya kitobi birinchi juzi “ Poklanish “ deb nomlangan bolib, bu asar 2008-2014 yillarda yozilgan va hajmi 408-betni tashkil etadi. Xislatli hikmatlar kitobi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf xazratlari shayx Ibn Atoulloh Sakandariyi “ Hikamul- Atoiyya” nomli kitoblariga qilgan tarjimalari va sharhlari organilgan. Hadis va hayot nomli asarlari aslida hadis va hayot nomli kitobning muqaddimasi bolib, bu kitobda islom ulamolari va muhaddislari va roviylar haqida ma'lumotlar berilgan. Tafsiri hilol kitobi 6-juzi Qur'oni Karimning Arrohman surasidan boshlab Nas surasigacha tafsir qilingan.

Baxtiyor oila kitobi: "Ushbu kitob Islom dinining oilaviy munosabatlarga oid ahkomlarining keng va batafsil sharhi bo'lib, musulmon kishi oilaviy hayotga oid bilishi lozim bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Kitobda insonga ikki dunyo saodati yo'lini ko'rsatib bergan Islom dinining baxtli, saodatli oila qurish, erxotinning huquqlari, burch va majburiyatlari, ota-onaga, qaynota-qaynonaga munosabat, kelin va kuyov tanlash, aqiyqa, farzand tarbiyasi, silai rahm, taloq, idda va shu kabi ko'plab dolzarb mavzulardagi ta'limotlari orqali bugungi kunda qator muammolar muhokama qilinadi, oyatlar, hadislar hamda salaf solihlar ning hayoti misolida musulmonning baxtli oilaviy hayot dasturi ko'rsatib beriladi." Hadis va hayot kitobi: Malumingizkim,

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Xislatli hikmatlar” 10.www.muslimaat.uz veb sayti

“ Hadis va Xayot” silsilasi mashhur alloma, Qohiradagi “ Al-azxar” dorilfununi muddarislaridan biri shayx mansura Ali Hosif hazratlarining “ Al-toj al-jome lil-usul fii ahadiysur Rasul” ya’ni (Rasul sollallohu alayhi vasallamning hadislaridan asllarni jam qiluvchi toj) deb nomlangan ulkan asarlariga yozilgan komil va shomil sharxlardan iborat toplamdir.”hadis va hayot “ silsilasining dastlabki juzlari chop etilishi bilan kitobsevarlarning sevimli asariga aylanib, koplab muxlislarning javonlaridan, momin-musulmonlarning qalbidan chuqur va munosib orin oldi.

Ruhiy tarbiya: Malumingizkim, fazilatli Shayx Muhammad Sodiq

Muhammad Yusuf hazratlari muborak Ramazon kunlarida “ Ruhiy tarbiya “ suhbatlari olib, bordilar. Mazkur suhbatlarda “ Ruhiy tarbiya” kitobiga oid mavzular boyicha ma’ruzalar tinglandi. E’tiboringizga havola qilinayotgan audiotoplamga ushbu kitobning “ Poklanish “ deb nomlangan birinchi juziga oid ma’ruzalar kiritildi. Mazkur suhbatlarda momin-musulmon bandaga hos bolishi lozim bolgan ma’lum maqomotlarni royobga chiqarish, musulmon shaxsiyatining tiklanishi hamda bu ulug maqomga nomunosib bolgan sifatlardan poklanish haqida soz yuririladi. [2] Tafsiri Hilol- butun olamga mudarris bolgan buyuk ulamolar yurti – Movarounnahr diyorida yozilgan eng yangi tafsirdir. Zamonamizning zabardast olimlaridan biri shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining ushbu tafsirlari ozining sodda va ravon tili, teran va daqiq uslubi bilan ajralib turuvchi shox asardir.” Tafiri Hilol “ motabar tafsirlarining an’analariga sodiq qolgan holda, bugungi kun kitobxonining saviyasi, dunyoqarashi va ehtiyojlarini ham hisobga olib yozilgan bolib, o`quvchini Qur’oni Karim ma’nolarinining bitmas-tuganmas hikmatlariga oshno etadi. “ Sizlar bilan ushbu satrlar orqali Islom dinidagi ijtimoiy odoblar borasida suhbat yuritish niyatidamiz. Alloh taolodan ishimizning oson kochishida yordam soragan holda buning barchamizga foydali bolishini tilab duolar ham qilamiz. Alloh taolo Ozining oxirgi dinin Islomni ukammal qilgani, bandalariga bergan nematini batamom etgani, uni bandalariga qiyomat qoim bolgunicha din deb rozi bolgani siz bilan bizga ikki dunyoning baxti-saodatidir. Alloh taolo Moida surasida marhamat qiladi:<<Bugungi kunda sizga diningizni mukammal qilib berdim. Sizga nematimni batamom qildim.Va sizga Islomni din deb rozi boldim>> (3-oyat). Dinning mukammal qilingani, nematning batamom etib berilgani va Islomni din deb rozi bolingani togrisidagi faqat osha zamon musulmonlari yoki umuman, musulmon ummati uchun emas, balki butun inisoniyat uchun katta sharaf va bashorat edi.Bu ulkan xursandchilik xabari insoniyatning uzoq tarixi davomida saodat izlab qilgan harakat va urinishlariga toj kiydirib, gozal natijalar bergan edi.” Yuqoridagi aynan shu gaplar Shayx hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” kitobida bayon qilingan edi. Ushbu kitobda musulmon kishining

---

[2] .Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar”

odob axloqi, yurish turishi, hayot tarzi va oila bilan dost birodarlar bilan chiroyli munosabatda bolish qanday ekanligi yozib qoyilgan.”Insonlarni yaratgan xoliqi Alloh taolo uni asta-sekin tarbiya ham qilib bordi. Barcha avlodlarga Islomni din qilib bergan bolsa ham, har zamon va har makonga oziga xoz shariat berdi. Ilk paygambar Odam Atoga berilgan shariat osha davrdagi sodda hayotga mos va osha zamon voqeligini hisobga olgan sodda shariat edi.

Keyingi davrlarda ham Alloh taolo xuddi shu qoida asosida har zamonning, makonning va jamiyatning oziga xoz holatlarini etiborga olgan holda shariatlar yuborib turdi.Tabiiyki, keyin kelgan shariat oldingisidan mukammalroq bolar edi. Avvalgi paygambarlar oz qavmlarigagina yuborilardi. Ularning paygambarliklari, shariatlari, malum muddatga, malum makonga va malum jamiyat va qavmga xos edi. Shu tariqa koplab paygambarlar, shariatlar yuborildi. Nihoyat, insoniyat ayni kamolga etgan paytida Alloh taolo paygambarlarning oxirgisi Muhammad alayhissalomga samoviy kitoblarning songgisi Quroni Karimni nozil qildi va u orqali jamiki insoniyat uchun har zamon va har makonga salohiyatli Islom shariatini joriy qildi. Bu esa insoniyat uchun ulkan sharaf edi. Ana shu oxirgi shariatning mukammal talimi tatbiqi yigirma uch yil davom etdi. Makki mukarrama yaqinidagi Hiro gorida boshlangan bu olamshumul talim Madinai munavvara va uning atroflarida davom etdi, vidolashuv haji chogida - ushbu biz organayotgan oyatning nozil qilinishi bilan mukammal boldi. Va nihoyat, olamlarning Robbi Ozining momin-musulmon bandalariga << Bugungi kunda sizga diningizni mukammal qilib berdim>>, deb xitob qildi. Ushbu xitob Islom dini inson hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi shomil  nizom ekanini korsatdi. Din etiqod masalalarini ham, shu bilan birga, odob – axloq, muomala, manaviyatlar, talim-tarbiya, ijtimoiy masalalar, ibodatlar, halol-harom va boshqa muammolarni ham oz ichiga oladi. Mazkur ishlarda shariat hukmiga amal qilganalar Allohning amriga itoat etgan bolishadi. Kim Islom shariatini oz hayotiga dastur qilib olsa, ilohiy dasturni, barkamol dasturni qollayotgan boladi. Uning aqiydasi komil, manaviy hayoti barkamol boladi. Talimtarbiyasi, odob-axloqi, ijtimoiy hayoti, turli aloqalar kamoliga yetgan boladi. Ikki dunyodagi baxt-saodati tokis boladi. Borliqni yaratgan Qodiru Zuljalol shu borliqning xalifasi etib insonni ham yaratgan. U Ozi yaratgan borliqda Ozi yaratgan odam qanday dasturga amal qilib yashasa, ikki dunyo saodatiga erishishini ham Ozi yaxshi biladi.[3] Azaliy va chegarasiz ilmi ila bandalari uchun   qilinishi lozim bolgan odoblarni ham joriy qilgan. Biz ushbu kitobimizda mazkur odoblarning birMuhammad Sodiq  Muhammad  Yusuf 1952-yil 15-aprelda O‘zbekistonda  diniy olim oilasida tug‘ilgan. Otasi ustoz Muhammad Yusuf o‘g‘liga boshlang‘ich diniy ta’lim bergan, maktabda muvaffaqiyat qozonishi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan,

[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya”

kitobxonlikka mehr uygʻotgan.Muhammad Sodiq oʻrta maktabni tamomlagach, 1970-yilda Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil oladi va uni eksternet boʻyicha muvaffaqiyatli tamomlaydi. 1973-yilda Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutiga oʻqishga kirdi. 1975-yilda institutni tamomlab, „Sovet Sharq musulmonlari“ jurnalida ishlagan. 1976-yilda Tripolidagi (Liviya) Da’wa Islamia universitetiga oʻqishga kirdi va uni 1980-yilda imtiyozli diplom bilan tugatdi. Vataniga qaytib, Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy boshqarmasining tashqi aloqalar boʻlimida ishlagan, Imom Buxoriy nomidagi Oliy islom institutida dars bergan. Bu davrda Muhammad Sodiq institut uchun yangi oʻquv dasturini ishlab chiqdi, yangi islomiy fanlarni oʻqitishni yoʻlga qoʻydi, talabalarni zarur oʻquv va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlashni tashkil qildi. 1986-yilda institut rektori boʻldi.

1989-yil 6-fevralda Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf muftiy — Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy idorasi rahbari, Oʻzbekiston mustaqillikka erishish arafasida esa shayx SSSR Oliy Kengashiga deputat etib saylandi va mustaqil Oʻzbekistonning birinchi muftiysi boʻldi[3][4].

Mustaqillik bilan xalqqa diniy erkinlik berildi, muftiy Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Oʻzbekistondagi eng mashhur shaxsga aylandi. Xuddi shu yili u SSSR xalq deputati etib saylandi[5].

1997-yilda Muhammad Sodiq Saudiya Arabistonidagi xalqaro islom tashkiloti Rabita al-Alam al-Islomiy (Islom olami uyushmasi) tarkibidagi musulmon mamlakatlari va Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi davlatlari uchun mas’ul etib tayinlandi. U ushbu tashkilot boshqaruv kengashining doimiy a’zosi edi.

Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Oʻzbekistondagi vataniga qaytib, koʻplab diniy asarlar yozishga kirishdi. Musulmonlarning ilmiy va diniy madaniyatini yuksaltirishga bagʻishlangan respublika boʻylab oʻtkazilgan koʻplab tadbir va yigʻilishlarda qatnashgan, Qur’oni Karimning oʻzbek tiliga semantik tarjimasini amalga oshirgan, islom ilmlariga oid yuzdan ortiq kitob va tarjimalarini namoyon etadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf haqida xulosa o'zbek tilida juda og'ir til qo'yardi. Ushbu shaxs, O'zbekistonning maorifiyatli diniy voqealari bo'yicha e'tibor qozonadigan muhim shahsiyatdir. Shoxada, shayx o'qituvchi va diniy lider bo'lib, o'zining fikr-mulohazalari va yoritgichlarini ifodalaydi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Islom adabiyotini yoriqlovchi va maqolalarini tinglay olganlarning o'rtasida mashhurdir. Ushbu shaxs, o'zining jamiyatda xizmat qilgan, islomiyadagi ahamiyatli masalalarni kashf etgan va muhokama qilganligi bilan.U muhaddis ijodida ishlagan boʻlib, faqihlik sohalarida kora-karachi boʻlib, odamlarni falokatdan oʻzgashga oʻrgatgan. Shuningdek, ular ishi nlialik-khujandliklarga islomiy ta'limni parametr qilib berishda ham faol ishtirok etganlar. Shayx Muhammad Sodiq

ISSN 2181-3187

Muhammad Yusuf 2021-yilning 16-dekabr kuni Tasavvuf Islom markaziga, 25-dekabr kuni O‘zbekiston Islom Akademiyasiga Samarkanda tashrif buyurdi. Uning asarlari va adabiyotlari tarqalganligi uchun ular dunyo bilan ismiga ko‘p bo‘lib, xususan, muhaddis sifatida izohlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Odoblar xazinasi”
2.info@mirarab.uz veb sayti
3.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya”
4.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Xadis va hayot”
5.www.muslim.uz veb sayti
6.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Tafsiri hilol”
7.www.hidoyat.uz veb sayti
8.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Oltin silsilasi”
9.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Xislatli hikmatlar”
10.www.muslimaat.uz veb sayti
11.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar”
www.vakillik.uz veb sayti
www.madrasalar.uz veb sayti
www.muslim.uz